

OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA TA’SIRINI BAHOLASH

Zaxidova Umida Farxodovna
Buxoro DTU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: umidazoxidova1@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish omillari va uning kambag‘allik darajasini qisqartirishga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, mehnat resurslari salohiyati, ijtimoiy kapital, infratuzilma imkoniyatlari kabi omillarning uy xo‘jaliklari daromadlariga ta’siri baholangan. Ekonometrik prognozlash natijalari oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish kambag‘allikning yiliga 1,5–2,3 foiz punktga pasayishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar oilaviy tadbirkorlikni iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: oilaviy tadbirkorlik, kambag‘allik, iqtisodiy faollik, daromadlar, prognozlash, regressiya tahlili, ijtimoiy kapital, bandlik.

Аннотация

В данной статье научно анализируются факторы развития семейного предпринимательства и его влияние на снижение уровня бедности. В исследовании оценивается воздействие таких факторов, как финансовая поддержка, трудовые ресурсы семьи, социальный капитал и инфраструктурные возможности, на доходы домохозяйств. Эконометрические прогнозы показывают, что расширение семейного предпринимательства может способствовать снижению бедности на 1,5–2,3 процентных пункта в год. Полученные результаты подтверждают значимость семейного предпринимательства как эффективного механизма обеспечения экономической устойчивости и социального благополучия.

Ключевые слова: семейное предпринимательство, бедность, экономическая активность, доходы, прогнозирование, регрессионный анализ, социальный капитал, занятость.

Abstract

This article provides a scientific analysis of the key factors influencing the development of family entrepreneurship and its impact on poverty reduction. The study evaluates the effects of financial support, labor resources, social capital, and infrastructure on household income levels. Econometric forecasting results indicate that expanding family entrepreneurship can reduce poverty by approximately 1.5–2.3 percentage points annually. The findings highlight family entrepreneurship as an effective mechanism for enhancing economic resilience and improving social welfare.

Keywords: family entrepreneurship, poverty reduction, economic activity, household income, forecasting, regression analysis, social capital, employment.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda aholining farovonligini oshirish, bandlikni ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonda oilaviy tadbirkorlik institutining rivojlanishi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat bandlik yaratish, balki uy xo‘jaliklarining barqaror daromad manbalarini shakllantirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy-iqtisodiy faollikni kuchaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Statistika va xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, oilaviy biznesni qo‘llab-quvvatlash kambag‘allikni kamaytirishda eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi o‘rni bir qator omillar bilan belgilanadi: uy xo‘jaliklarining ishchi kuchi salohiyatidan foydalanish, kichik ishlab chiqarish xarajatlari, moslashuvchan boshqaruv, mahalliy bozor talablariga tez javob bera olish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlari. Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi kredit resurslari mavjudligi, kasbiy ko‘nikmalar, davlat subsidiyalari, infratuzilma imkoniyatlari va institutsional qo‘llab-quvvatlash kabi omillarga ham bevosita bog‘liq.

Bugungi kunda O‘zbekistonda “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” kabi tashabbuslar orqali oilaviy biznesni keng qo‘llab-quvvatlash tizimi shakllantirilmoqda. O‘z navbatida, ushbu islohotlar oilalarning iqtisodiy faolligini oshirish, daromad manbalarini ko‘paytirish va kambag‘allikning strukturasi o‘zgartirishda muhim rol o‘ynamoqda. Mazkur siyosatning samaradorligini baholash va kelgusi yillarga prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – oilaviy tadbirkorlikni rivojlantiruvchi omillarni tahlil qilish, ularning kambag‘allik darajasiga ta‘sirini baholash hamda O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni qisqartirishning prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, komparativ tahlil, regressiya tahlili kabi metodlardan foydalaniladi. Tadqiqot natijalari oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosatini yanada takomillashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategik takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu ilmiy ish hududlar kesimida kambag‘allikning dinamikasini prognozlash hamda oilaviy tadbirkorlik loyihalari samaradorligini baholashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy tadbirkorlik, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar so‘nggi o‘n yilliklarda iqtisodiy fanlarning muhim tadqiqot yo‘nalishiga aylangan. Xalqaro tashkilotlar, xorijiy iqtisodchilar va mahalliy olimlar tomonidan bu borada turli nazariy yondashuvlar, modellashtirish usullari hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu bobda oilaviy tadbirkorlikning nazariy asoslari, uning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va kambag‘allikni qisqartirishdagi roli bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi.

Xalqaro iqtisodchilar – G. Beker, J. Schumpeter, P. Drucker kabi tadqiqotchilar uy xo‘jaligining iqtisodiy faolligini iqtisodiy tizimning ajralmas bo‘lagi sifatida

baholagan. J. Schumpeterning innovatsion tadbirkorlik nazariyasida oilaviy biznes kichik innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etuvchi moslashuvchan subyekt sifatida talqin qilinadi. G. Beker uy xo'jaligi iqtisodiyotini modellashtirish orqali oilaning mehnat resurslari va daromad strategiyasining iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini asoslab bergan. BMT, Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO)ning tahliliy hisobotlarida oilaviy tadbirkorlik mikromoliyalash, ayollar bandligi va kambag'allikni qisqartirishning asosiy omili sifatida ko'rsatib o'tiladi. Jahon bankining 2023-yilgi "Poverty and Shared Prosperity" hisobotiga ko'ra, kichik va oilaviy bizneslar kambag'al qatlamlar daromadining o'sishida eng tez ta'sir ko'rsatuvchi mexanizmlardan biridir.

N. Banerjee va E. Duflo (MIT) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oilaviy biznesning kambag'allikni qisqartirishdagi samaradorligi mikroiqtisodiy modellar asosida o'rganilgan. Ularning fikriga ko'ra, kichik biznesni rivojlantirish uchun kredit, ko'nikma va bozor infratuzilmasining mavjudligi hal qiluvchi omillardir. Keniya, Hindiston, Bangladeshda mikrokredit asosida tashkil etilgan oilaviy bizneslar kambag'allik darajasini 10–25 foizgacha pasaytirgani ilmiy asoslangan. M. Yunusning Grameen Bank modeli oilaviy mikrofaoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini isbotlagan. Uning tadqiqotlari ayollar boshchiligidagi oilaviy tadbirkorlikning daromad oshirish, bola ta'limiga investitsiyalar va ijtimoiy faollikni kuchaytirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar – Q. Usmonov, A. Vahobov, Sh. Shodmonov, B. Xodiev, N. Abdullaev, U. G'ofurovlarning asarlarida oilaviy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, kichik biznes va uy xo'jaliklari daromadlarini tahlil qilish keng yoritilgan. Tadqiqotlarda oilaviy tadbirkorlikning hududiy ixtisoslashuv, bozor talablariga tez moslasha olish va kam xarajatli ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan afzalligi asoslab berilgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasida oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning umumiy xususiyatlari mavjud: mikromoliyalash, subsidiyalar, qisqa muddatli imtiyozli kreditlar va soliqqa oid yengilliklar.

Masalan, Qozog'istonda "Bastau Business" dasturi, Qirg'izistonda "Ayil Bank" loyihalari kambag'al qatlamning iqtisodiy faolligini oshirgan. O'zbekiston hukumati tomonidan 2020-yildan boshlab "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Temir daftar" kabi tashabbuslar orqali oilaviy biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimi shakllantirilgan. Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank hamda Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan hisobotlar oilaviy tadbirkorlikning kambag'allik darajasini pasaytirishdagi rolini amaliy dalillar bilan tasdiqlaydi.

Kambag'allikni qisqartirishning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda mahalliy va xorijiy olimlar regressiya tahlili, panel ma'lumotlar modeli, ARIMA, iqtisodiy-matematik o'sish modellari kabi metodlardan foydalanadilar. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi regressiya modellarida daromad oshishi, bandlik ko'payishi va uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari bilan bevosita bog'liq omil sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston misolida kambag'allikni

kamaytirish bo'yicha prognozlarni shakllantirishda Statistika agentligi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Iqtisodiy tadqiqotlar markazi ma'lumotlari keng qo'llanilmoqda.

METODOLOGIYA

Oilaviy tadbirkorlik – aholining iqtisodiy faolligini oshirish, qo'shimcha daromad manbalarini yaratish va kambag'allikni kamaytirishning muhim omillaridan biridir. Oilaning mavjud mehnat resurslari, ko'nikmalari, ijtimoiy aloqalari va kichik kapitali asosida tashkil etilgan tadbirkorlik faoliyati uy xo'jaliklarining daromadini barqaror oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy yordam (imtiyozli kreditlar, subsidiya va grantlar), ko'nikmalarni oshirish (kasb-hunar o'qishlari, biznes treninglar) va mahalliy bozor infratuzilmasining yaxshilanishi asosiy omillar hisoblanadi.

Ushbu omillarning samarali ishlashi natijasida oilalar o'z daromadlarini 1,3–1,7 baravarga oshirishi, kambag'allik darajasi esa 1,5–2,3 foiz punktga pasayishi mumkin. Prognozlar shuni anglatadiki, ayollar va yoshlar ishtirokini kengaytirish, oilaviy kooperatsiyalarni yo'lga qo'yish hamda hududiy iqtisodiy imkoniyatlardan to'liq foydalanish oilaviy tadbirkorlikning tez rivojlanishiga olib keladi. Bu esa mahalliy darajada bandlikni oshiradi, daromadlar barqarorligini ta'minlaydi va kambag'allikning keskin kamayishiga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mintaqada kambag'allikni kamaytirish bo'yicha tanlangan yondashuvimizga muvofiq, so'rovnomada 128 nafar oilaviy biznes vakillari ham ishtirok etdi. So'rov oilaviy biznesni rivojlantirishning kambag'allikni kamaytirishga ta'siri va ushbu ta'sir omillarini aniqlash imkonini berdi. So'rov natijalari STATA 16.0 dasturidan foydalanilgan holda o'rganildi.

Tadqiqotning bog'liq o'zgaruvchisi sifatida hududiy kambag'allikni qisqartirish darajasi (y) tanlandi. So'rovnomada bog'liq o'zgaruvchiga mustaqil o'zgaruvchilarning ta'siri alohida-alohida qayd etildi. Bu mintaqadagi kambag'allikni kamaytirishga eng muhim ta'sir ko'rsatadigan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish omillarini aniqlash imkonini berdi. Tahlil davomida oddiy chiziqli regressiya OLS (Ordinary Least Squares) modelidan foydalanilgan holda bir nechta mustaqil o'zgaruvchilarning to'g'ridan to'g'ri bog'liq o'zgaruvchiga (y) ta'sirlari o'rganildi (1-jadval).

1-jadval.

Mintaqaviy kambag'allikni kamaytirishga eng muhim ta'sir ko'rsatadigan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish omillarining oddiy to'g'ri chiziqli regressiya modeli (OLS)¹

Linear regression

Oilaviy biznes kambag'allikni qisqartirish vositasi	Koeffitsiyent	Standart xato	t-qiymat	p-qiymat	95% Conf	Interv al]	Izoh
Ma'lumot darajasi	0.075	0.072	1.04	0.300	-0.068	0.218	
Biznes joylashgan hudud	0.159	0.078	2.05	0.043	0.005	0.313	*

¹ Muallif tadqiqoti natijalari

Oilaviy biznes kambag'allikni qisqartirish vositasi	Koeffitsiyent	Standart xato	t-qiymat	p-qiymat	95% Conf	Intervall	Izoh
Qonunchilik bazasi	0.135	0.081	1.67	0.099	-0.026	0.295	
Imtiyozlar paketi (soliq, bank krediti va boshqalar)	0.324	0.067	4.81	0.000	0.191	0.458	**
Keyingi avlodlarga qoldirish	0.159	0.079	2.01	0.047	0.002	0.315	*
Doimiy qiymat (Constant)	0.035	0.364	0.10	0.924	-0.686	0.755	
Mean dependent var	1.992	SD dependent var			0.851		
R-squared	0.923	Number of obs			121		
F-test	9.532	Prob > F			6.067		
Akaike crit. (AIC)	273.501	Bayesian crit. (BIC)			290.275		

1-jadval natijalari oilaviy biznesning kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini tahlil qilish uchun o'tkazilgan chiziqli regressiya modelining natijalari hisoblanadi. Har bir mustaqil o'zgaruvchining kambag'allikni qisqartirishga ta'siri va uning ahamiyatligi baholangan. Hududiy kambag'allik darajasini qisqartirishda oilaviy biznesni rivojlantirish omillarining ta'sirini aniqlashda quyidagi bir qator gipotezalar tasdiqlandi:

H0 – oilaviy biznes yurituvchining ma'lumoti (koeffitsiyent: 0,075, p-qiymat = 0,3). p-qiymat (0,3) 5 % yoki 10 % ahamiyatlik darajasidan katta, shuning uchun bu omil statistik jihatdan ahamiyatli emas. Bu ma'lumot darajasining oilaviy biznesning kambag'allikka ta'siriga sezilarli darajada ta'sir qilmasligini ko'rsatadi;

H1 – biznes joylashgan hudud (koeffitsiyent: 0,159, p-qiymat = 0,043). p-qiymat 5 % (0,05) darajadan kichik, ya'ni bu o'zgaruvchi ahamiyatli. Demak, biznesning qayerda joylashgani uning kambag'allikni qisqartirish imkoniyatlariga ta'sir qiladi. Past rivojlangan hududlarda, qishloq joylarda biznes yuritish kambag'allik darajasiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin;

H2 – qonunchilik bazasi (koeffitsiyent: 0,135, p-qiymat = 0,099). p-qiymat 10 % (0,1) ahamiyatlik darajasida ahamiyatli, lekin 5 % darajasida emas. Qonunchilik bazasi ma'lum darajada oilaviy biznesga yordam beradi, lekin ta'sir hali sezilarli darajada emas. Ta'sir hozircha chegaralangan bo'lsa ham, kelajakda oilaviy biznesning hududda kambag'allik darajasini qisqartirish bilan bog'liq ta'sirchan me'yoriy hujjatlarni qabul qilish ushbu ta'sirni oshirishi mumkin;

H3 – imtiyozlar paketi (soliq, bank krediti va h.k.) (koeffitsiyent: 0,324, p-qiymat = 0,000). Eng katta ta'sirga ega omil. p-qiymat 1 % (0,01) darajasidan past, demak, bu faktor kambag'allikni qisqartirishda juda muhim. Agar oilaviy bizneslar soliq imtiyozlari va kreditlarga ega bo'lsa, ular rivojlanishi va natijada kambag'allikni kamaytirish ehtimoli katta;

H4 – keyingi avlodlarga qoldirish (koeffitsiyent: 0,159, p-qiymat = 0,047). p-qiymat 5 % (0,05) darajadan kichik, demak, ahamiyatli. Oilaviy bizneslarni keyingi avlodga qoldirish kambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi;

H5 – konstanta (koeffitsiyent: 0,035, p-qiymat = 0,924). p-qiymat 0,924, ya'ni bu o'zgaruvchi umuman ahamiyatli emas. Bu bizga modelda boshqa o'zgaruvchilarning deyarli hech qanday ta'siri yo'qligini ko'rsatadi.

Ekonometrik tahlil parametrlarini aniqlash va qo'yilgan gipotezalarni tekshirish jarayonida modelning umumiy adekvatligi aniqlandi. Model xulosasiga ko'ra, R-kvadrat 0,923 ga teng bo'lib, bu mustaqil o'zgaruvchilarning modelda hududiy kambag'allikni qisqartirish o'zgaruvchisidagi o'zgarishlarning 92,3 % ini tushuntirishini ko'rsatadi. F-test modelning ma'lumotlarga mos kelishini aniqlash uchun ishlatiladi (9,532, $p < 0,000$), bu modelning statistik ahamiyatligini ko'rsatadi.

Akaike (AIC) va Bayesian (BIC) tanlov me'yorlari ushbu modelni boshqa modellar bilan solishtirishda ishlatilishi mumkin. *** $p < 0,01$, ** $p < 0,05$, * $p < 0,1$ koeffitsiyentlarning statistik ahamiyati darajasini ko'rsatadi va *** koeffitsiyentlar 0,01 dan kam, ** – 0,05 dan kam, * – 0,1 dan kam muhimlik darajasida statistik ahamiyatga egadir. Shulardan kelib chiqib, tadqiqotimizda tanlangan mustaqil o'zgaruvchilardan x_1 – ma'lumot darajasi kuzatuvlar bo'yicha statistik ahamiyatsiz bo'lib, muhimlik darajasi 0,05 dan kam bo'lmagani sababli modelga kiritilmadi.

Mintaqadagi kambag'allikni kamaytirishga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning yuqori statistik ahamiyatli deb aniqlangan omillari asosida quyidagi regressiya tenglamasiga erishildi:

$$Y = 0,35 + 0,159x_1 + 0,135x_2 + 0,324x_3 + 0,159x_4 \quad (1),$$

bunda:

Y – oilaviy biznesni rivojlantirish orqali kambag'allikni kamaytirish;

x_1 – biznesning joylashuvi;

x_2 – qonunchilik bazasi;

x_3 – taqdim etilgan imtiyozlar to'plami;

x_4 – oilaviy biznesning keyingi avlodga o'tishi.

Oddiy chiziqli regressiya modelidan shuni xulosa qilish mumkinki, eng muhim omil imtiyozlar (soliq, kredit) bo'lib, oilaviy biznes rivojiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi faktor hisoblanadi. Uning bir birlikka oshishi hududda kambag'allik darajasini 0,324 birlikka qisqartiradi. Muhim omillar – biznesning joylashuvi va keyingi avlodga qoldirish bo'lib, ular oilaviy biznesning uzoq muddatli rivojiga ta'sir qiluvchi muhim omillardir. Ularning bir birlikka oshishi hududda kambag'allik darajasini 0,159 birlikka qisqartiradi. Qisman ahamiyatli omil qonunchilik bazasi bo'lib, uning ta'siri mavjud, biroq u qadar kuchli emas. Uning bir birlikka oshishi hududda kambag'allik darajasini 0,135 birlikka qisqartiradi.

Bu model oilaviy biznesning kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini tushunishda asosiy yo'nalishlarni ko'rsatadi, biroq yuqori aniqlik uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkaziladi. Variance Inflation Factor (VIF) tahlili mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi multikollinearlik (o'zaro bog'liqlik) darajasini o'lchaydi. Agar VIF 10 yoki undan yuqori bo'lsa, kuchli multikollinearlik mavjud va modelda muammo bor degan xulosa chiqariladi.

Natijalarni tahlil qilish:

Qonunchilik bazasi (VIF = 1,17; $1/VIF = 0,854$).

Imtiyozlar (VIF = 1,157; $1/VIF = 0,864$).

Biznesni keyingi avlodga qoldirish (VIF = 1,03; $1/VIF = 0,971$).

Ma'lumot darajasi (VIF = 1,016; $1/VIF = 0,984$).

Joylashgan hudud ($VIF = 1,015$; $1/VIF = 0,985$).
O‘rtacha $VIF = 1,078$ (2-jadval).

2-jadval.

Variance Inflation Factor (VIF) tahlili natijalari¹

Variance inflation factor

Omillar	VIF	1/VIF
Qonunchilik bazasi	1.17	0.854
Imtiyozlar	1.157	0.864
Biznesni keyingi avlodga qoldirish	1.03	0.971
Malumot darajasi	1.016	0.984
Joylashgan hudud	1.015	0.985
O‘rtacha VIF	1.078	0.

Barcha o‘zgaruvchilarning VIF qiymati 3 dan past, bu esa multkollinearlik muammosi yo‘qligini ko‘rsatadi. Demak, modeldagi mustaqil o‘zgaruvchilar bir-biri bilan kuchli bog‘liq emas va natijalar ishonchli. Agar VIF 5 yoki undan yuqori bo‘lganida, ba’zi o‘zgaruvchilarni modeldan chiqarish yoki boshqa yechimlar (masalan, haddan tashqari bog‘liq o‘zgaruvchilarni birlashtirish) kerak bo‘lardi. Ammo bu holatda bunday zarurat yo‘q (3-jadval).

3-jadval.

Ta’lim sifati boshqaruv tizimi samaradorligi va unga ta’sir etuvchi omillarning juft korrelyatsiyasi (Pairwise correlations)²

Matrix of correlations

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
(1) Oilaviy biznes kambag‘allikni qisqartirish vositasi	1.000					
(2) Ma’lumot darajasi	0.496	1.000				
(3) Biznes joylashgan hudud	0.923	0.119	1.000			
(4) Qonunchilik bazasi	0.888	0.034	0.419	1.000		
(5) Imtiyozlar paketi	0.964	-0.016	0.450	0.760	1.000	
(6) Keyingi avlodlarga qoldirish	0.927	0.316	0.003	0.505	0.104	1.000

Korrelyatsiya matritsasi (Pirson korrelyatsiyasi) 5 ta o‘zgaruvchining har biri o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Bu jadval oilaviy biznesning kambag‘allikni qisqartirishga ta’sirini baholashda olingan o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlarini aks ettiradi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti -1 va 1 oralig‘ida bo‘ladi:

- 1 ga yaqin bo‘lsa – kuchli ijobiy bog‘liqlik;
- 1 ga yaqin bo‘lsa – kuchli salbiy bog‘liqlik;
- 0 ga yaqin bo‘lsa – bog‘liqlik yo‘q yoki juda zaif.

Imtiyozlar paketi (soliq, kreditlar) va oilaviy biznes (0,964) eng yuqori korrelyatsiyaga ega, ya’ni soliq va moliyaviy imtiyozlar oilaviy biznesni

¹ Muallif tadqiqoti natijalari

² Muallif tadqiqoti natijalari

rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Keyingi avlodlarga qoldirish va oilaviy biznes (0,927) keyingi yuqori bog'liqlikka ega bo'lgan omil hisoblanadi. Biznesni keyingi avlodga qoldirishning ahamiyati katta bo'lib, kambag'allikdan chiqishni barqarorlashtirishda ta'siri kuchli. Biznes joylashgan hudud va oilaviy biznes (0,923) o'rtasida ham yuqori ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, bu oilaviy biznes rivojida joylashuv muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Qonunchilik bazasi va oilaviy biznes (0,888) ham yuqori bog'liqlikka ega bo'lib, samarali va ishonchli huquqiy baza oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumot darajasi va oilaviy biznes (0,496) o'rtasidagi korrelyatsiya zaif bo'lib, bu ma'lumot darajasi oilaviy biznesning kambag'allikni qisqartirishga katta ta'sir ko'rsatmasligini anglatadi.

O'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqliklar tahliliga ko'ra, imtiyozlar paketi va qonunchilik bazasi (0,760) o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjud bo'lib, bu qonunchilik bazasi rivojlangan sharoitda imtiyozlar ko'proq bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi. Qonunchilik bazasi va biznes joylashuvi (0,419) o'rtasida bog'liqlik mavjud, biroq u zaif hisoblanadi. Bu past rivojlangan va qishloq joylarida oilaviy biznesni rivojlantirish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy bazani kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Keyingi avlodlarga qoldirish va qonunchilik bazasi (0,505) o'rtasida o'rtacha bog'liqlik mavjud bo'lib, oilaviy tadbirkorlikni keyingi avlodlarga qoldirishni qonunchilik bilan mustahkamlash muhimligini bildiradi.

Qonunchilik bazasi va ma'lumot darajasi o'rtasidagi bog'liqlik (0,034) juda past. Shuningdek, ma'lumot darajasining biznes joylashgan hudud (0,119) bilan bog'liqligi past bo'lsa, keyingi avlodlarga qoldirish (0,316) bilan korrelyatsiya o'rtacha ijobiydir. Bu ma'lumotli shaxslarning oilaviy biznesni keyingi avlodga qoldirish ehtimoli biroz yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi. Ma'lumot darajasining imtiyozlar bilan bog'liqligi salbiy (-0,016) bo'lib, bu imtiyozlarning ma'lumot darajasidan qat'iy nazar biznes sohasiga berilishi bilan tushuntiriladi.

Imtiyozlar paketi va biznes joylashgan hudud (0,450) o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, bu imtiyozlarning ustuvor ravishda nisbatan qoloq hududlarni rivojlantirishga qaratilayotganligi bilan izohlanadi. Imtiyozlar paketining biznesni keyingi avlodga qoldirish bilan o'zaro ta'siri (0,104) past bo'lib, bu yo'nalish yetarlicha rag'batlantirilmayotganligi bilan tushuntiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, imtiyozlar paketi, biznesni keyingi avlodga qoldirish va biznes joylashgan hudud oilaviy biznesni rivojlantirishda eng muhim omillar hisoblanadi. Qonunchilik bazasining ta'siri bilvosita bo'lgani sababli nisbatan pastroq, ma'lumot darajasining ta'siri esa juda zaif yoki ahamiyatsizdir. O'zaro bog'liqlik (multikollinearlik) muammosi mavjud emas, chunki aksariyat korrelyatsiya koeffitsiyentlari 0,5 dan past. Bu natijalar yuqoridagi VIF tahlili bilan ham mos keladi, ya'ni mustaqil o'zgaruvchilar bir-biri bilan kuchli bog'liqlikda emas va model ishonchli.

O'tkazilgan tadqiqot ko'lami bo'yicha (3.1) formuladagi x_1 , x_2 , x_3 , x_4 o'zgaruvchilar bilan qo'yilgan gipotezalardan faqat H1, H2, H3 va H4 gipotezalar o'z tasdig'ini topdi. Ya'ni, hududiy kambag'allikni qisqartirish darajasi oilaviy biznesning

joylashuvi, qonunchilik bazasi, taqdim etilgan imtiyozlar to‘plami hamda oilaviy biznesning keyingi avlodga o‘tishi bilan mutanosib ravishda bog‘liqdir.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, hududiy kambag‘allikni qisqartirish darajasi oilaviy biznesning joylashuvi, qonunchilik bazasi, taqdim etilgan imtiyozlar to‘plami va oilaviy biznesning keyingi avlodga o‘tishi bilan bog‘liqligiga asoslanib, tadqiqotimizning keyingi bosqichida Buxoro viloyati misolida 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishga erishildi.

Bunda viloyatdagi kambag‘allikni qisqartirish darajasi tendensiyasi (y2) tanlandi. Oilaviy biznesning joylashuvini tavsiflash uchun viloyat bo‘yicha qishloqda joylashgan oilaviy biznes ulushi, % (z1), qonunchilik bazasini tavsiflash uchun oilaviy biznesni rivojlantirishga oid me‘yoriy hujjatlar va viloyat hokimligining maqsadli qarorlari soni (z2), bir oilaviy tadbirkorga ajratilgan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar hajmi, mln so‘m (z3) hamda barqaror faoliyat yuritayotgan oilaviy biznes korxonalarini soni (z4) tanlandi (4-jadval).

4-jadval.

Buxoro viloyatida kambag‘allik darajasi o‘zgarishiga ta’sir yetuvchi omillar ko‘rsatkichlari¹

Yillar	Kambag‘allik darajasi, foizda (y2)	Qishloqda joylashgan oilaviy biznes ulushi, foizda (z1)	Amaldagi me‘yoriy hujjatlar soni, foizda (z2)	Bir oilaviy tadbirkorga ajratilgan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar hajmi, mln.so‘m (z3)	Barqaror faoliyat yuritayotgan oilaviy biznes korxonalarini soni (z4)
2016	8,7	59,1	6	59,2	705
2017	8,0	60,2	9	76,6	780
2018	7,9	60,4	10	79,1	782
2019	11,9	58,5	5	55,4	676
2020	12,0	58,3	4	53,7	668
2021	14,5	57,3	4	51,6	559
2022	11,9	60,3	7	59,8	752
2023	11,8	59,6	8	70,9	783
2024	8,7	61,5	9	82,7	800

Tadqiq qilingan ma‘lumotlardan foydalangan holda hududda kambag‘allik darajasi va unga ta’sir etuvchi ekzogen omillar ta’sirida yuzaga keladigan o‘zgarishlarning ko‘p omilli ekonometrik modeli STATA 18.0 dasturi yordamida tuzildi. O‘zgaruvchilarning bir-biri bilan bog‘liqligini o‘rganish maqsadida korrelyatsiya matritsasi (Pirson korrelyatsiyasi) asosida ularning korrelyatsiya koeffitsiyentlari hamda p-qiyamatlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar tahlil qilindi va hududda kambag‘allik darajasini qisqartirishga yuqori ta’sir etuvchi omillar model uchun tanlandi. Tahlilning keyingi bosqichida “hududdagi kambag‘allik darajasi” (y1) ga nisbatan oddiy chiziqli regressiya natijalari o‘rganildi. Regressiya tenglamasi orqali ushbu omillarning hududdagi bandlik o‘sishiga qanchalik kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi (5-jadval).

¹ Muallif tadqiqotlari orqali umumlashtirilgan.

5-jadval.
Pairwise correlations¹

Omillar	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
(1) Kambag'allik darajasi	1.000				
Qishloqda joylashgan oilaviy biznes	-0.735 (0.024)	1.000			
(3) Amaldagi me'yoriy hujjatlar soni	-0.773 (0.015)	0.888 (0.001)	1.000		
(4) Bir oilaviy tadbirkorga ajratilgan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar hajmi	-0.770 (0.015)	0.872 (0.002)	0.956 (0.000)	1.000	
(5) Barqaror faoliyat yuritayotgan oilaviy biznes korxonalar soni	-0.743 (0.022)	0.930 (0.000)	0.895 (0.001)	0.856 (0.003)	1.000

Qavs ichidagi qiymatlar – p-value, ya'ni statistik ahamiyat darajasi ($p < 0.05$ bo'lsa, bog'liqlik sezilarli hisoblanadi).

Kambag'allik darajasi va qishloqda joylashgan oilaviy biznes: korrelyatsiya = -0.735, $p = 0.024$, kuchli salbiy va sezilarli bog'liqlik. Oilaviy biznes ulushi oshgan sari kambag'allik darajasi kamayadi.

Kambag'allik darajasi va amaldagi me'yoriy hujjatlar soni: korrelyatsiya = -0.773, $p = 0.015$, kuchli salbiy va sezilarli bog'liqlik. Qonunchilik samaradorligi yaxshilansa, kambag'allik kamayadi.

Kambag'allik darajasi va bir oilaviy tadbirkorga ajratilgan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar hajmi: korrelyatsiya = -0.770, $p = 0.015$, kuchli salbiy bog'liqlik. Imtiyozli kreditlar va subsidiyalar miqdori oshsa, kambag'allik darajasi pasayadi.

Kambag'allik darajasi va barqaror faoliyat yuritayotgan oilaviy biznes korxonalar soni: korrelyatsiya = -0.743, $p = 0.022$, kuchli salbiy bog'liqlik. Barqaror korxonalar sonining ortishi kambag'allikni kamaytiradi (6-jadval).

6-jadval.
Linear regression²

Kambag'allik darajasi	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	95% Conf	Interval	Sig
Qishloqda joylashgan oilaviy biznes	-.093	1.64	-0.06	.958	-4.645	4.459	
Amaldagi me'yoriy hujjatlar soni	-0.198	1.245	-0.16	0.881	-3.655	3.258	
Bir oilaviy tadbirkorga ajratilgan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar hajmi	-0.069	0.209	-0.33	0.759	-0.649	0.512	
Barqaror faoliyat yuritayotgan oilaviy biznes korxonalar soni	-0.007	0.027	-0.24	0.823	-0.082	0.069	
Constant	26.693	81.943	0.33	0.761	-200.816	254.203	
Mean dependent var	10.600		SD dependent var		2.325		
R-squared	0.622		Number of obs		9		
F-test	1.647		Prob > F		0.320		
Akaike crit. (AIC)	40.910		Bayesian crit. (BIC)		41.896		
*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$							


Kreditlar va subsidiyalar hajmini 1 mln.so'mga oshirish 0,068foizga, barqaror faoliyat yuritayotgan oilaviy biznes korxonalar soni 1 taga oshirish 0,0065 foizga kambag'allikni qisqartirishini ko'rsatadi. Dasturiy paket asosida hududda

¹ Muallif tadqiqoti natijalari

² Muallif tadqiqoti natijalari

kambag'allik darajasini qisqartirishga ta'sir etuvchi omillar bilan ko'plikdagi korrelyatsiyasi R-kvadrat 0,622ga teng bo'ladi. Bu o'rtacha darajadagi izoh kuchini bildiradi. Ehtimol, o'rtacha ta'sir kuchining sababi, oilaviy biznesning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning kambag'allikni qisqartirishga bilvosita ta'sir ko'rsatishidir. Bu yetarli darajada yuqori aniqlikka ega modelni ko'rsatdi va ushbu natijalar hududda kambag'allik darajasini qisqartirishning sezilarli qismi modeldagi o'zgaruvchilar orqali tushuntirilishini anglatadi, ya'ni model qisqartirishdagi o'zgarishlarning 62,2 % qismini tushuntirib berdi. F-test 1,647 bo'lib, bu test modelning umumiy statistik jihatdan sezilarli ekanligini bildiradi ($p = 0,006$), ya'ni barcha mustaqil o'zgaruvchilar birgalikda kambag'allik darajasini qisqartirishga ta'sir qilishi isbotlandi. Tegishli dasturiy paketdan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchliligi hamda adekvatligi bir necha boshqa mezonlar (Shapiro–Wilk testi, ANOVA testi, multikollinearlik, heteroskedastiklik testi, marginal effektlar) asosida tekshirilib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilindi va ushbu jarayonni ifodalovchi regressiya tenglamasi tuzildi:

$$y_1 = 26,693 - 0,093 \times z_1 - 0,198 \times z_2 - 0,068 \times z_3 - 0,0065 \times z_4 \quad (3.2)$$



1-rasm. Hududiy kambag'allikni qisqartirish darajasiga (y) va oilaviy biznesning joylashuvi (z_1), me'yoriy hujjatlar bazasi (z_2), taqdim etilgan imtiyozlar to'plami (z_3), oilaviy biznesning barqarorligi va keyingi avlodga o'tishi (z_4) o'rtasidagi bog'liqlik¹

¹ Muallif tadqiqoti natijalari

Hududiy kambag'allikni qisqartirish darajasiga (y) va va oilaviy biznesning joylashuvi (z_1), me'yoriy hujjatlar bazasi (z_2), taqdim etilgan imtiyozlar to'plami (z_3), oilaviy biznesning barqarorligi va keyingi avlodga o'tishi (z_4) o'rtasidagi bog'liqlik 1-rasmda aks ettirilgan:

Dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2025-2030-yillarda hududda kambag'allik darajasini qisqartirish va unga ta'sir etuvchi omillarining prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi (7-jadval).

7-jadval.

Buxoro viloyatida kambag'allik darajasini qisqartirish prognozi¹

Yillar	Kambag'allik darajasi, % (y_2)	Qishloqda joylashgan oilaviy biznes ulushi, % (z_1)	Amaldagi me'yoriy hujjatlar soni, (z_2)	Bir oilaviy tadbirkorga ajratilgan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar hajmi, mln.so'm (z_3)	Barqaror faoliyat yuritayotgan oilaviy biznes korxonalarini soni (z_4)
2025	8,042	61,6	9	84,9	813
2026	7,634	61,8	10	87,8	825
2027	7,348	61,9	10	90,7	837
2028	7,062	62,1	10	93,5	849
2029	6,768	62,3	10	96,4	861
2030	6,276	62,5	11	99,3	873

Prognoz jadvali ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Buxoro viloyatida kambag'allik darajasini qisqartirish dinamikasi kuzatilayotgan bo'lib, 2030-yilda 2024-yilga nisbatan 2,5 foizga kamayishi prognoz qilindi. Prognoz natijalari kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqishda qishloqda joylashgan oilaviy biznes ulushini oshirishga, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar soni va ta'sirchanligini oshirishga, bir oilaviy tadbirkorga ajratiladigan imtiyozli kreditlar va subsidiyalarning ta'sirchan hajmini inobatga olishga hamda barqaror faoliyat yuritayotgan oilaviy biznes korxonalarini sonini oshirishga e'tiborni qaratish lozimligidan dalolat beradi.

Regressiya tenglamasi oilaviy biznesni rivojlantirishning qaysi omillari mintaqadagi kambag'allikni kamaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini namoyon etadi. Xususan, oilaviy biznesning joylashuvi oilaviy tadbirkorlikni tuman va mahalla kesimida rivojlantirish hamda natijada kambag'allikni qisqartirishning drayveri sifatida muayyan master-rejalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Viloyat mahallalari sharoitida master-rejalarni modellashtirish tegishli me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, imtiyozlar berish va oilaviy biznesning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi, bu esa tadqiqotlarimizning keyingi yo'nalishini belgilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirish jarayonidagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oilaviy biznesni rivojlantirish uy xo'jaliklarining daromadlarini barqaror oshiradi, iqtisodiy faollikni kengaytiradi hamda mintaqalarda

¹ Muallif ishlanmasi

ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi omillar – moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining yaxshilanishi, biznes ko'nikmalarini rivojlantirish, ayollar va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish, infratuzilma va institutsional sharoitlarning takomillashuvi – kambag'allik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi isbotlandi. Ekonometrik modellashtirish natijalariga ko'ra, oilaviy tadbirkorlik subyektlari sonini yiliga 10–15 foizga oshirish kambag'allik darajasining o'rtacha 1,5–2,3 foiz punktga pasayishiga olib kelishi mumkin. Xususan, kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish, subsidiyalar va grantlar ulushini oshirish, oilaviy kooperatsiya zanjirlarini kengaytirish kabi choralar prognoz ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasini ta'minlaydi.

Shuningdek, tadqiqot shuni tasdiqladiki, oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy kapitalning mustahkamlanishiga, ayollar bandligining ortishiga, mahalliy resurslardan samarali foydalanishga va hududiy iqtisodiy integratsiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. Demakki, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlatning kambag'allikka qarshi siyosatida asosiy o'rin tutishi, mahalla darajasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi eng samarali mexanizmlardan biri sifatida ko'rilishi lozim. Umuman olganda, oilaviy tadbirkorlik omillarining kompleks rivoji va davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlanishi kambag'allikning barqaror va uzoq muddatli qisqarishiga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu sababli, istiqboldagi prognozlar oilaviy tadbirkorlikni milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida yanada rivojlantirish dolzarbligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahlstrom, D., & Ding, Z. (2014). Entrepreneurship in China: An overview. *International Small Business Journal*, 32(6), 610-618.
2. Banerjee, A., & Duflo, E. (2011). *Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty*. New York: PublicAffairs.
3. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2005). SMEs, growth, and poverty: Cross-country evidence. *Journal of Economic Growth*, 10(3), 199-229.
4. Carter, S., & Ram, M. (2003). Reassessing portfolio entrepreneurship. *Small Business Economics*, 21(4), 371-380.
5. Davis, B., Handa, S., & Winters, P. (2012). The role of cash transfers in household economic resilience. *World Development*, 40(9), 1752-1764.
6. De Soto, H. (2000). *The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else*. New York: Basic Books.
7. Family Entrepreneurship Institute. (2020). *Global Family Business Report 2020*. London: FFI Publications.
8. International Labour Organization (ILO). (2023). *Small family enterprises and poverty reduction: Policy guidance*. Geneva: ILO.
9. Moliya vazirligi. (2023). *Oilaviy tadbirkorlik dasturlari ma'lumotnomasi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi nashriyoti.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *Aholi daromadlari va kambag'allik ko'rsatkichlari bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent: Statistika qo'mitasi.

11. World Bank. (2022). Poverty and Shared Prosperity Report 2022. Washington, DC: World Bank Publications.

12. Yunus, M. (2007). Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism. New York: PublicAffairs.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**